

JAHON ADABIYOTINI O'QITISH MASALALARI

<https://doi.org/10.70728/phil.v05.i01.004>

Gulnoza Tolibjonovna Bobonazarova
O'zbekistan davlat san'at va madaniyat instituti

Annotatsiya: Bugungi kunda jahon adabiyotini o'rganish va o'rgatish masalasi tobora dolzarb ahamiyat kasb etib bormoqda. Zamonaviy texnologik taraqqiyot sharoitida adabiyot o'qituvchilari oldida yangi pedagogik yondashuvlar asosida ta'lim berish kabi mas'uliyatli vazifalar turibdi. Maqolada jahon adabiyotini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki hamda tashqi omillari borasida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: jahon adabiyoti, antik davr, ta'lim, badiiy kompetensiya, ichki va tashqi omil, ko'rgazmalilik, tahlil

PROBLEMS OF TEACHING WORLD LITERATURE

Gulnoza Tolibjonovna Bobonazarova
Uzbekistan State Institute of Art and Culture

Abstract: Today, the study and teaching of world literature is becoming increasingly important. Given modern technological advances, literature teachers face the challenging task of teaching using new pedagogical approaches. The article examines the internal and external factors of the complexity of teaching world literature.

Keywords: world literature, antiquity, education, artistic competence, internal and external factors, clarity, analysis

Jahon adabiyoti namunalarini o'rganish birmuncha murakkab hisoblanadi. Ana shu murakkablik nimada ekanligini aniqlab, ularni bartaraf etish yo'llarini ishlab chiqish lozimdir. Bizningcha, jahon adabiyoti namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning ichki hamda tashqi omillari mavjud. Ichki omillarga jahon adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatida mavjud bo'lgan xususiyatlar kirs, tashqi omillar qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iboratdir.

Jahon adabiyoti namunalarini o'rgatishdagi murakkablik tasavvuf ta'limotining jahon durdonalari asarlar poetikasiga ta'siri masalalari bo'yicha talabalar bilimining yetarli emasligidadir. Tasavvuf bizda nisbatan keyinroq o'rganishga kirishilgan ilm bo'lib, unga bo'lgan munosabat, qarashlar endigina shakllanmoqda. U haqida yetarli tasavvur va to'xtamga kelish uchun hali ko'p ishlar qilinishi kerak.

Ma'lumki, fan dasturida: *Antik davr yunon adabiyoti; Rim adabiyoti; O'rta asrlar adabiyoti va G'arbiy Yevropa Uyg'onish adabiyoti; Yevropa ma'rifatchilik adabiyoti; Romantizm adabiyoti; Realizm va tanqidiy realizm adabiyoti; Amerika adabiyoti; XX asr Lotin Amerikasi adabiyoti* kabi ma'lumotlar berilgan.

Biz jahon adabiyoti namunalariga yuzlanar ekanmiz, eng qadimgi adabiy yodgorliklar, Antik davr yunon adabiyotiga e'tiborni qaratamiz. "Yunoniston shunday bir jahon ustaxonasiki, - degan edi Belinskiy, har qanday poeziya nafosatni idrok etmoq uchun shu ustaxonada tahsil ko'rmog'i darkor". [1, 34]

Bilamizki, qadimda Yevropa tuprog'ida kichkina mamlakatlardan biri - Yunonistonda yozma badiiy ijodning dastlabki namunalari yuzaga kela boshlagan. Yunonistonda tug'ilgan ushbu adabiyot Rim madaniyatining barpo etilishida, tarkib topishida ham katta o'rnak bo'lgan. Bu ikki xalq yaratgan madaniyat, san'at va adabiyot antik madaniyat *antik adabiyot* deb ataladi. [1, 39]

Ushbu o'rinda *antik* so'zining lug'aviy ma'nosi "qadimgi" ekanligi bois, yer yuzidagi eng qadimgi manbalar Yunon va Rim adabiyoti bilan bog'liq degan yondashish vujudga keladi. Shunga ko'ra, bu atamaning Yunon-Rim adabiyotlarigagina tadbiiq etilishi unchalik to'g'ri emasligini izohlash lozim. "Chunki madaniyatning asl beshigi Sharq mamlakatlari bo'lgan; dastlabki adabiyot yodgorliklari, oldin Misr, Eron, Xitoy, Hindiston, Bobil kabi mamlakatlarda yaratilgan". [2, 57]

Anglanadiki, Yunon-Rim san'ati va adabiyotiga nisbatan qo'llanilib kelinayotgan "antik" so'zini faqat Yevropaga tadbiiqan anglash lozim, negaki Yevropa xalqlarining madaniy taraqqiyotlari Yunon-Rim madaniyati bilan aloqador bo'lganliklari sababli, shu xalqlarda vujudga kelgan ma'naviy boyliklar eng qadimiy deb bilganlar.

Manbalarda O'rta Osiyo bilan Yunoniston o'rtasidagi iqtisodiy-madaniy aloqalar juda qadim zamonlardan boshlanishi aytilgan. Masalan, U.Saidovning ta'kidlashicha: "Sharq va G'arb olamining yunon ilmu-fani ayniqsa, yunon falsafasi bilan tanishtirish borasida Farobiyning xizmatlari nihoyatda buyukdir. Bir qancha Sharq va Yevropa tillari qatori Yunon tilini ham mukammal bilgan bu salohiyatli olim, fanning turli-tuman sohalariga doir noyob original asarlar yozish bilan birga Arisotelning "Metafizika", "Fizika", "Meteorologiya" va boshqa asarlariga chuqur tavsiflar yozdi va ularni sharhlab chiqdi". [7]

Antik adabiyot shu adabiyotni yaratgan xalqning his-tuyg'ularini va umid-orzularining ifodasi ham bo'lgan. Yunon-Rim xalqlari o'zlarining badiiy ijodlarida insoniyatning asriy muammolarini yechishga uringanlar, ular botirlik jasoratini, kurash ishtiyoqini, vatan mehrini, insonning qudratini kuylaganlar, ulug'laganlar: paskashlik, qo'rqoqlik, sotqinlik va shu kabi chirkin illatlarga nafrat ko'zi bilan qaraganlar. Shuning uchun ham bu xalqlarning uzoq o'tmishida yaratilgan asarlari hanuz hammaga manzur va ma'qul bo'lib kelmoqda.

Jahon adabiyoti namunalarini o'qitishdagi murakkabliklarning tashqi omillari ham mavjud. Ushbu omillar o'quv jarayoniga bevosita aloqador bo'lmasa ham, lekin bilvosita ta'sir ko'rsatib adabiy ta'limda muayyan chalkashliklarga sabab bo'ladi. Bu asosan ba'zi metodist hamda adabiyotshunos olimlarning ilmiy va ilmiy-pedagogik faoliyatlari bilan bog'liq holda yuzaga kelmoqda. Metodikaga oid qo'llanmalarining adabiy ta'limdagi ahamiyatidan kelib chiqqan holda ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarga to'xtalib o'tish joiz.

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyani rivojlantirishda jahon adabiyoti durdonalarini ko'rgazmalilik asosida yetkazish maqsadga muvofiqdir. Yan Amos Komenskiyning ta'biri bilan aytganda, "Mumkin bo'lgan hamma narsa tuyg'ularning his etilishi uchun yetkazilishi kerak". [11]

Talabalarda badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud: *Talabalar nutqini rivojlantirishda asarlar tahlili va izohini kuchaytirish; Talabalar bilimni mustahkamlashda adabiy - estetik omilni rivojlantirish; Jahon adabiyoti namunalarini illyustratsiyalar asosida taqdim etish.*

Talabalar nutqini rivojlantirishda asarlar tahlili va izohini kuchaytirish. Bunda badiiy asar tahlili hamda so'zlar lug'atiga e'tibor berish muhim. Shu sababli, yangi avlod pedagogik metodologiyasi va o'qitish hamda o'rganish yondashuvlariga asosan talabalarning individualligiga e'tibor qaratishi va badiiy asarlar izohini to'laqonli o'rganishlari ko'p bora ta'kidlanmoqda. Buning uchun har bir talaba jahon adabiyoti namunalarini o'rganishda asar voqealari va asar qahramonlarini mukammal o'rganishi va olinma so'zlar lug'atini bilish ta'lim sifati va samaradorligini oshirishga imkon beradi va shu bilan birga talabalarning motivatsiyasiga ijobiy ta'sir qiladi. Namuna sifatida "Rim adabiyoti" mavzusidan ba'zi so'zlarni keltiramiz:

Prinsips - I-grajdanin; Rim tabaasi - Rim fuqarosi; Protekstata - milliy mavzuda yozilgan Rim tragediyasi; Proteksta - Rim senatorlari kiyadigan alvon hoshiyali ustki libos nomi; Anallar - solnomalar; Satiralar - "Qurama" to'plami; Parasitlar - baloxo'rlar; Triumvirat - uchlik ittifoqi va boshqalar.

Yoki "XX asr boshlarida Amerika adabiyoti" mavzusida keltirilgan so'zlar lug'ati: *Naturalizm, Dekadent, Gote dekadans, Impressionizm.* [10, 145]

Demak, badiiy asarni o'qishda: har bir so'z, ibora va jumlaning qiroat bilan, to'g'ri, ravon o'qishgina emas, balki badiiy asarning umumiy ruhiga kirib, tushunib o'qish asarning janr xususiyatlaridan tashqari, o'ziga xos ichki tuzilishi va ruhiyatini hisobga olishni shu bilan bir qatorda so'zlarning lug'atini ham taqozo etadi. Bunga erishish uchun talabalarni badiiy asarlarning lug'atlari ustida jiddiy ishlashga o'rgatish zarur.

Talabalar bilimni mustahkamlashda adabiy - estetik omilni rivojlantirish haqida so'z yuritish ekanmiz, jahon adabiyoti namunalari asosida badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ularning ijodiy tafakkurini kengaytirish muhim sanaladi. Chunki Yunon adabiyoti va san'ati durdonalaridan bahra olgan Rim adabiyotida, mutafakkirlar

va shoirlarning adabiy - estetik qarashlarida mifologik rivoyatlardan, an'anaviy mavzular va syujetlardan uzoqlashuv, realistik hayot manzaralarini tasvirlashga, ijtimoiy-siyosiy mavzularga ko'proq murojaat qilish ijobiy samaralar keltirish bilan birga insoniy his-tuyg'ular, nafis ruhiy holatlarni tasvirlashda chekinish, orqaga qaytish yuz beradi. [5, 34] Shu bois asarni o'qish va o'rganish orqali uni his etish hamda tasavvur qilmoq kerak.

Talaba mutolaa chog'ida asar mazmuni bilan tanishsa, tahlil paytida poetikasiga murojaat qiladi. Mutolaa hissiyotni boyitib, aqlni peshlasa, tahlil matn tizimidagi ma'noni chuqur o'rganishga yordam beradi. Talabalar tahlil vositasida konkret asarni o'rganibgina qolmasdan, adabiyotshunoslik, mantiq, tilshunoslik, didaktika, san'at, falsafa kabi turli fanlarning badiiy ijodga bog'liq qonuniyatlari bilan ham tanishadi. Bunga erishishda o'qituvchining quyidagi masalalarni hal etishi nazarda tutiladi:

1. Tahlilning maqsadi va mazmunini aniqlash. 2. Ishni tashkil qilish (asar tahlilining mashg'ulotlari bo'yicha-ma'ruza va amaliy topshiriqlar tizimini ishlab chiqish). 3. Asarning qanday metodlar asosida o'rganilishini, talabalar egallaydigan malaka va kompetensiyalar doirasini belgilash. [6, 17]

Adabiy-estetik tahlil har bir asarning janriy xususiyatlari, talabalar yoshi, bilimi va egallagan malakalariga ko'ra o'ziga xoslik kasb etadi. Masalan, jahon adabiyoti asarlaridagi voqea-hodisalar o'rtasidagi o'xshashlikni taqqoslash orqali o'zlashtirilsa, tarixiy voqealar talqini ta'sirli sharhlangandagina tushunarli bo'ladi. Chunki talabalar voqealar oqimiga, sarguzashtlarga ishqiboz bo'lib, qahramonlarning ruhiy olami, ichki dunyosiga qiziqadilar. Asar voqealarini tahlillash orqali ma'naviy tarbiyalash davom etadi. Chunki talabalar asar qahramonlari orqali insonning murakkab ichki dunyosini ham his qiladi. Ayniqsa, jahon adiblari tomonidan yaratilgan dostonlarida qahramonlarining xatti-harakatlari, jasorati, vatanparvarligi nutqlarida yorqin aks etgan. Lekin ular o'z holicha tasvirlanmaydi, balki boshqa qahramonlar o'rtasida kechadigan ziddiyatlarni anglashga yordam beradi. [6, 57]

Jahon adabiyoti namunalarini illyustratsiyalar asosida taqdim etish. Badiiy adabiyot borliqni jonli manzaralar, obrazlar orqali aks ettiradi. Tabiatiga ko'ra adabiyotning o'zi borliqning ko'rgazmali tasviridan iborat. Ammo adabiyot darslarida san'atning boshqa turlari: kino, televidenie, musiqa, tasviriy san'at ham yordamga kelishi mumkin. Bular adabiyot darslariga qo'shimcha axborot manbasi bo'lib xizmat qiladi, talabalarda estetik tuyg'ularning shakllanishi va rivojiga imkon beradi, shuningdek, adib yaratgan obrazlarning talabalar ongida yanada puxtaroq muhrlanishiga yordam beradi. Hozirgi paytda media manbalar har bir oliy ta'lim muassasada mavjud. Bularning hisobiga ko'rgazmali qurollar doirasi yanada kengaydi.

S.Mahmudovanning uslubiy qo'llanmasida jahon adabiyoti namunalarini o'rganishda ko'rgazmalilik talabalarning asarni o'zlashtirishiga yordam bera olishi haqida keng ma'lumotlar berilgan. [4, 67]

Ko'rgazmalilikdan amaliy mashg'ulotda va mustaqil ishlarda foydalanish bir-biridan jiddiy farq qiladi va boshqa-boshqa maqsadlarni ko'zda tutadi. To'garak ishlarida, fakultativ mashg'ulotlarda va biror tasviriy san'at, musiqa asari, tele yoki kinofilm bilan tanishtirish vazifasini qo'yishi mumkin. Jahon adabiyoti fanidagi ko'rgazmalilikning bosh vazifasi talabalarga adabiy asarni idrok etishda ko'maklashish, yozuvchi ijodini to'laroq tasavvur etishga yordamlashish, adabiy-nazariy tushunchalarni egallashga qo'shimcha imkon yaratish, ular nutqini o'stirishni ta'minlashdan iborat. Ko'rgazmalilikning vazifalari nihoyatda xilma-xil bo'lishi mumkin. [8, 45]

Hozirda ko'rgazmalilikning turlari xilma-xil: illyustrativ-badiiy hamda grafik materiallar, gramofon yozuvi va radio eshittirishlar, kinofragment va o'quv filmlari, telefragment va televizion darslar v.b. Ularning har biri ko'rish, eshitish, sintetik shakldagi ko'rgazmalilikka tegishli bo'lishi mumkin. Ko'rish bilan bog'liq ko'rgazmalilik. Bunga yozuvchi va shoirlarning portretlari, asarlarga illyustratsiyalar yozuvchi hayoti va ijodiga aloqador bo'lgan joylar fotografiyasi yoki yozuvchining hayoti, asari bilan bog'liq fotosuratlar kiradi. Har holda eng kamida rasm namunalari shu vazifani bajarishi mumkin. Ishda hajmi qo'shimcha texnik vositalarni talab qilmaydigan reproduksiyalardan foydalanish ham qulaylik tug'diradi.

Adabiyot darslarida ko'rgazmalilikning yana bir turi xarita-sxemalar bo'lishi mumkin. Har bir jadval va sxemalar ham talabalar bilimini mustahkamlash bilan birga ularning adabiy - estetik rivojlanishlarida omil bo'lishi shubhasiz. Xususan, "Iliada" va "Odisseya", Gesiodning "Mehnat va kunlar" asari, Vergiliyning "Eneida" dostoni, Goratsiyning "Epodlar", "Satiralar" va "Nomalar" asarlari, Ovidiyning "Metamorfozalar" asarini o'rganishda bunday xarita-sxemalardan foydalanish katta samara beradi. [1]

X.Sh.Yandarbiyevga ko'ra, xarita-sxemalarni yaratishda "asarlarga chizilgan illyustratsiyalar, biografik materiallar, gazeta va jurnallardan qirqib olingan parchalar, nodir va nashr etilmagan rasmlar, maktublar" lardan foydalanish mumkin. "Karta-sxemalar o'zining maqsadi, darslarni rang-barang qilish, uni mumkin bo'lgan darajada tig'izlashtirish, unga talabalarning adabiy bilimlarni olishga qiziqishlarini va ijodiy faolliklarini oshirish, shunday qilib, ular mehnatining mazmunli va quvnoq bo'lishi uchun qo'shimcha materiallarni jalb qilishdan iborat". [9, 47]

Shuningdek, "Iliada" va "Odisseya" dostonlarini o'rganishda asar voqealarini tasavvur qilishda chizilgan illyustratsiyalardan foydalanish mumkin. Bu esa talabalarning fikrlash qobiliyatini yanada takomillashtiradi. Shu bilan birga dramatik asarlar sahnaga qo'yishga mo'ljallab yaratilgani va faqat aktyorlar ijrosidagina o'zining estetik, tarbiyaviy vazifasini to'la bajargani, nasriy asarlar tabiatan yakka tartibda o'qishni taqozo etgani kabi, she'riy asarlar ifodali o'qilgandagina yurakdan his qilinishi hamda uning tasviri, chizilgan surati o'zgacha tasvirlanadi.

A.I.Voronina qo‘llanmasida“ yana bir muhim holat mavjud: darsda, mashg‘ulotlarda oq-qora tasvirdan ko‘ra rangli rasmlardan foydalanish maqsadga muvofiqdir” deya ta’kidlagan. [5, 24]

Jahon adabiyoti namunalariga ishlangan miniatyuralarning turli yillarda nashr etilgan namunalari bu jihatdan bebaho manba va material bo‘la oladi. Yozuvchi va adiblarning turli davrlarda yaratilgan rangli rasmlari, portretlari, oilaviy yoki ijodiy davralardagi rangli fotosuratlar ham talabalar qiziqishiga mos va munosib bo‘ladi. Rus adabiyoti haqida gapirib, professor Ye.N.Kolokolsev shunday yozadi: “Portret janri insonlarning tasavvurlarini oydinlashtirishga yordam beradi”. [3, 73] Buning natijasida talabalarda adib shaxsi haqidagi fikr-mulohazalari tiniqlashadi, ularning real insoniy qiyofasini aniqroq tasavvur etadilar. Qolaversa, bu yo‘l bilan predmetlararo aloqaning o‘ziga xos tomonlariga ham ro‘para kelinadiki, bu holat talabalarining turli sohadagi bilimlarini bir yerga jamlash, ulardan amalda foydalanish zaruratini yuzaga chiqaradi. Aslida, ta’lim jarayonida o‘rganiladigan jahon xalq og‘zaki ijodi va har bir shoir, yozuvchi haqidagi shunday xarita-sxemalarni tuzish imkoniyati mavjud.

Har qanday sifatli va zamonaviy texnik vositalar ham bevosita muloqot nuqtai nazardan o‘qituvchi va talaba nutqining o‘rniga teng kelolmaydi. O‘qituvchi o‘zi matnni o‘qiganida istagan vaqtda uni uzishi, tegishli zaruriy izoh va tushuntirishlar berishi, talabalardan so‘rashi mumkin. Bunda talabaning ijodiy-ijrochilik qobiliyati o‘sishi bilan bir qatorda badiiy kompetensiyalari rivojlantiriladi.

Jahon adabiyoti namunalari asosida talabalarda badiiy kompetensiyalarni rivojlantirishda ko‘rgazmalilikning qaysi turidan va qanday holatda foydalanishini aniq belgilashi, ko‘rgazmalilikning didaktik funksiyasini oldindan puxta o‘ylab olishi shart. Adabiyotga yaqin bo‘lgan san’at asarlaridan foydalanishdan oldin, talabalarga dastlab asar haqida elementar bo‘lsa-da, tasavvur berish kerak.

Xulosa o‘rnida aytish mumkinki, jahon adabiyoti namunalarini o‘qitishdagi murakkabliklarning jahon adabiyotning shakli, mazmuni va tabiatidagi mavjud xususiyatlardan iborat bo‘lgan ichki, hamda qarash, munosabat va yondashuvlarning turlichaligidan iborat bo‘lgan tashqi omillarini chuqur o‘rganish muhin sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jahon adabiyoti. O‘quv-uslubiy majmua. - Toshkent, 2022.
2. Jahon adabiyoti tarixi. O‘quv-uslubiy majmua, - O‘zMU, 2011. O‘zbek filologiyasi fakulteti kutubxonasi.
3. Колоколсев Е.Н. Лирика в школьном изучении. Г.Р.Державин, А.С.Пушкин, М.Ю.Лермонтов Подробнее на ливелиб.ру. - Москва, 1978.
4. Mahmudova S. Jahon adabiyoti.Uslubiy qo‘llanma. - Toshkent, 2018.
5. Qosimov A., Hamdamov U. Jahon adabiyoti. O‘quv qo‘llanma. - Toshkent: “Barkamol fayz media”. 2017.

6. Qosimov A., Xo'jayev S. Jahon adabiyoti. - Farg'ona, 2016.
7. Saidov U. Sharq va G'arb: madaniyatlar tutashgan manzillar. - Toshkent: "Yangi asr avlodi", 2009.
8. Yo'ldoshev Q.B. Yangilangan pedagogik tafakkur va umumta'lim maktablarida adabiyot o'qitishning ilmiy-metodik asoslari. Ped. fan. dokt. ... diss. - Toshkent, 1996.
9. Яндарбиев Х.Ш. Карта-схема на урока литературы. - // Литература в школе. - Москва, 1983. №5.
10. Sharq mumtoz poetikasi. Nashrga tayyorlovchi, talqin va sharhlar muallifi prof. H.Boltaboyev. - Toshkent: O'zME, 2006.
11. <http://www.ziyonet.uz/>